

INGLIZ TILIDA GAPNING AKTUAL BO'LAKLARGA BO'LINISHI XUSUSIDA

Buronova D. (SamDChTI)

Gapning aktual bo'laklarga bo'linishi masalasi hozirga qadar ko'plab munozarali fikrlarni yuzaga keltirmoqda. Bu nazariyaning asoschisi A.Veyl hisoblanib, uning go'yalarini V.Matezius tomonidan rivojlantirilgan. Hatto, gapning aktual bo'laklarga bo'linishi terminini tilshunoslikga kiritgan ham V.Mateziusdir. Uning nazariyasiga muvofiq asosan ikki termin – jumlaning “asosi” va jumlaning “yadrosi” orqali ish ko'riladi. V.Matezius o'zining dastlabki tadqiqotlarida jumlaning “asosi” o'rniga “tema” terminidan ham foydalangan. Lekin hozirgi tilshunoslikda “asos” o'rnida “tema”, “yadro” o'rnida esa “rema” terminlari keng qo'llanilmoqda. Bunda tema xabarning so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham avvaldan, hech bo'lmaganda, nutq jarayonida ma'lum bo'lgan qismini, rema esa xabarning markazini tashkil etishi nazarda tutiladi.¹

Aktual bo'laklarning turli aspektlarini ko'rsatishda (jumlaning tema va remaga bo'linishi va qarama-qarshi qo'yilishi) ingliz tilida urg'u, intonatsiya, so'z tartibi, sintaktik qurilma va leksik vositalar, mantiqiy urg'u, sintaktik strukturaning o'zgarishi, majhul nisbat kabi sintaktik va leksik vositalar ishlatiladi. Ammo bu vositalar o'ziga xos bo'lib, turli nutq vaziyatlarida turlicha talqin qilinishi mumkin.

Intonatsiya va so'z tartibi gapning aktual bo'laklarga bo'linishining muhim vositalaridandir. Ko'plab olimlarning fikricha, aktual axborot (xabar, ma'lumot) gapning to'g'ri chiziqli dinamik tuzilishi yordamida beriladi, ya'ni uning elementlarining birinma-ketin kelishi, mantiqiy urg'u yordamida, boshqa grammatik va leksik vositalarining ishlatilishi orqali va h.k. Bu esa, o'z navbatida, gapni ikki bog'liq qismga bo'linishiga xizmat qiladi. Intonatsiya hususida gap borganda, tushunish mumkinki, gap fonetik nutq hususida boryapti, ya'ni aniq talaffuz qilinadigan inson tilining asosini tashkil etadigan ifodalardir. Tilning fonetik tabiatiga e'tibor qaratilgandagina, aksent sistemali intonatsiya chegaralangan bo'lib emas, balki til materialining hamma variant va turlarida universal tema va remani ifodalash vositasiga aylanadi. V. Gurivech va boshqa olimlar remani aniqlashda mantiqiy urg'uni ishlatishni taklif qilishgan. Rema o'zida mantiqiy urg'u oladi va yangi xabarni yetkazadi (jumla talaffuzidan asosiy maqsad ham shu), tema esa eski ya'ni avvaldan ma'lum xabarni o'z ichiga oladi.² Demak, Harry sent the letter (Harry xat yubordi) agar savol “u nima yubordi?” tarzida beriladigan bo'lsa, vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan “the letter” rema, gapning qolgan qismi esa temadir. Mantiqiy urg'u orqali biz gapning boshqa bo'laklarini ham remaga aylantirishimiz mumkin. Misol uchun : Harry sent the letter to me (Harry xatnimenga yubordi) “kimga” so'rog'iga javob sifatida predlogli to'ldiruvchi “to me” rema bo'lsa, Harry sent me the letter (Harry menga xat yubordi) “kim” ega “Harry” remadir. Darak

¹Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения. Основная функция порядка слов в чешском языке // Парижский лингвистический кружок. Москва: Прогресс, 1967, 435 с.

²Гуревич, В. Теоретическая грамматика английского языка. Сравнительная типология английского и русского языков / В. Гуревич. – М. : Наука, 2003. – 168 с.

gaplarda remani aniqlash savol berish orqali osonlashsa, maxsus so'roq gaplarda so'roq olmoshi(who, what, where, when), Umumiy so'roq gaplarda esa kesim rema hisoblanadi. Yoki buni quyidagi misolda ham ko'rish mumkin: Frank wanted rest and quiet.(Frenk tinchlik va damni xohlardi)(Margaret Mitchell. Gone with the wind) Misolnda keltirilgan "kim" tinchlik va damni xohlashi mantitqiy ur'gu berilayotgan bo'lsa Frank (Frenk) so'zi gapning yadrosi rest and quiet (tinchlik va dam) so'zlari esa gapning asosi sanaladi. Frenkning (Frank) "nimani" xohlashi nazarda tutilayotgan bo'lsa, u holda rest and quiet (dam va tinchlik) so'zlari jumlaning yadrosi, Frank (Frenk) so'zi esa asosi vazifasini bajaradi. Agar Frenkning "nima qilganligi" gapning markazida bo'lsa, unda wanted (xohlardi) so'zi yadro Frank (Frenk) so'zi esa asos vazifasida keladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish alohida joizki, gapning aktual bo'laklari faqat o'zlari qatnashayotgan jumladagina funksional faollik ko'rsatadi. Shuning uchun ma'lum bir jumlada rema vositasida kelayotgan so'z ikkinchi jumlada temaga aylanib qolishi ham mumkin.

Lord Canterville, the owner, wanted to sell it. Canterville Chase was a large and very old house near London. (Oscar Wilde .The Canterville Ghost)

Lord Kantervill uyni egasi uni sotmoqchi edi. Kantervill Cheys, London yaqinidagi katta va juda eski uy edi.

Birinchi gapda, albatta, Kantervill Cheys (uy) so'zi rema vazifasida kelmoqda. Biroq ikkinchi gapda mazkur so'zlar tema mavqeidadir, chunki bu gapda xabarning yadrosi, misolda large and very old (katta va juda eski) so'zlari bilan belgilanadi. Bunday bo'lishi tabiiydir, zotan, biz muloqot jarayonida har doim aniqlikdan noaniqlikka qarab boramiz va bunda xabarning markazidagi so'z mantiqiy urg'u bilan belgilanib boraveradi. M. Bloxning ta'kidlashicha, gapning aktual bo'laklari o'rtasidagi farq so'z tartibi bilan ham aniqlanadi.³

The accused of the criminal stood on the platform in the middle of the hall.(jinoyatda ayblanuvchi zalning o'rtasidagi platformada turar edi)– On the platform in the middle of the hall stood the accused of the criminal.(zalning o'rtasidagi platformada turgan jinoyatda ayblanuvchi edi)

Bu misollarda aynan dastlabki gap va uning transformatsiyasida rema (ega yoki predikativ guruh elementi) gap oxirida, tema esa gapning boshida joylashgan. Bu esa o'z navbatida tema-rematik munosabat fikrning tabiiy harakati xabarning aniqlikdan noaniqlikka qarab borishini yana bir bor ta'kidlaydi. Shunga qaramasdan, boshqa vaziyatlarda tema va remaning teskari joylashuvini kuzatishimiz mumkin: You look so well! – How well you look! Bu yerda yuqoridagi aktual bo'laklarning tartibiga teskari holatni kuzatish mumkin.

F. Palmerning fikricha, ingliz tilida agar bu noodatiy sintaktik pozitsiya bo'lsa gap boshidagi so'z halaqit berishi mumkin⁴: the girl over there I do not know very well.(anavi yerdagi qizni unchalik yaxshi tanimayman) Bunda topikalizasiya hodisasi yuz berib bu ingliz tili uchun kam uchraydigan holatdir. Inversiya ingliz tilida tema va remani ifodalashning yana bir usulidir. Ba'zi holatlarda inversiya maxsus kommunikativ qiymatga ega qurilmalarda odatiy so'z tartibi sifatida qabul qilinishi va har qanday bo'yoqdorlikdan holi bo'lishi mumkin. Qolgan holatlarda inversiya-bu

³ Блох, М. Теоретическая грамматика английского языка / М. Блох. – М. : Высшая школа, 1983. – 285 с.

⁴ Palmer, F. Semantics. A New Outline DJVU / F. Palmer. – М. : Эдиториал УРСС, 2000. – 352 с.

uslubiy ta'sir va urg'u uchun o'zgartirilgan so'z tartibidir: here comes the lady of my heart(ana mening qalbim malikasi kelyapti). Sintaktik konstruksiyalar o'z ichiga gap boshida here/there hamda It is...X that/who... qurilmasidir. Dastlabki sintaktik qurilma yordamida eganing remaga aylanishi kuzatilsa: So, we have three models. There's the Olympus, the new de-lux. Then there's the Diana – bigger and better than Dors; ikkinchisi kesimdan tashqari har qanday gap bo'lagini remaga aylantirishga imkon beradi: It was in such moments that I faced the idea of suicide.

It is (was)yordamida taqdim qilingan gaplar o'ziga xos bo'lib, ular o'z ichida omonomik tarzda grammatik va leksik qiymat yuklaydi va bu nutqiy vaziyatda yuzaga keladi. Yuqoridagi konstruksiyalarni ishlatish oldingi til vaziyatining natijasi hisoblanib, faqatgina sintaktik kontekstgina uning funksional va uslubiy ahamiyatini aniqlashi mumkin. Remani aniqlashning leksik birliklari sifatida only, almost, at least kabilar xizmat qilishi mumkin. Ular nafaqat takidlash vazifasini balki remalikning signali sifatida ham ishlatiladi. Just for a moment Crawford was at a loss. Yoki: Only our father knew the terrible truth. (A.C.Doyle-The Sign of Four) Berilgan jumlada only our father (bizning otamizgina)so'zlari o'zbek tilida -gina affiksi sifatida tarjima qilinib, only vositasida mantiqiy urg'u olmoqda va bu uning xabar markaziniya'ni yadrosini tashkil etayotganini ko'rsatmoqda. Shuni ham aytish lozimki, gapning aktual bo'laklari faqat o'zlari qatnashayotgan jumladagina funksional faollik ko'rsatadi. Determinantlar orasida artikllar ham aktual bo'laklarga bo'lishda xizmat qiladi. Ularning funksiyalari temaning indentifikatori hamda rema identifikatori kabilarga bo'linadi. The woman walked up and down the platform. – A woman walked up and down the platform. That man Ribber is a tough egg(Bu odam, Ribber, xavfli raqib) (E. S. Gardner. The D. A. Draws a Circle)

Berilgan gapda man (odam) so'zining rema ekanligi qat'iydir. Chunki uning oldidan qo'llanilayotgan that (bu) ko'rsatish olmoshi bu so'zni alohida ta'kidlamogda. Shuning uchun jumla tarkibidagi boshqa so'zning rema vazifasida kelishi imkoniyati cheklanmogda. Ingliz tilda tema va remani ifodalashning turli vositalari mavjuddir. Bu har qanday til vaziyatida universal hisoblanga intonatsiya bo'lishi, yoki so'z tartibi bo'lib u fikrning tabiiy holda aniqlikdan noaniqlikka borishini takidlashi mumkin. Sintaktik konstruksiyalar ajratishning leksik vositalari, kontrast komponentli sintaktik strukturalar, determinantlar bularnning hammasi gapda tema remani aniqlashning vositalari hisoblanib odatda ham og'zaki ham yozma nutqda ishlatiladi.

Adabiyotlar:

1. Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения. Основная функция порядка слов в чешском языке // Парижский лингвистический кружок. - Москва: Прогресс, 1967. - 435 с.
2. Блох М. Теоретическая грамматика английского языка – М.: Высшая школа, 1983. – 285 с.
3. Гуревич В. Теоретическая грамматика английского языка. Сравнительная типология английского и русского языков. – М.: Наука, 2003. – 168 с.
3. Palmer F. Semantics. A New Outline DJVU.– М.: Эдиториал УРСС , 2000. – 352 с.